

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1-aprel holatiga 2878,7 ming kishini tashkil etib, 2021-yil boshidan 11,3 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1865,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 %), qishloq aholisi soni 1013,7 ming kishini (35,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-mart


- Aholi soni **11,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- 3,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,2 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiyl o'sishi (2021- yil yanvar-mart oylarida)




Demografik holat

Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1– aprel holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 386,7 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4320,7 kishi), Namangan (888,4 kishi), To'raqo'r'g'on (839,6 kishi) va Norin (804,2 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lса, aksincha holat Pop tumanida (76,8 kishi) va Mingbuloq tumanida (173,9 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni



Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 15,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,5 promilleni tashkil etdi, hamda 2020 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega oshganligi (2020- yilning yanvar-mart oylarida 21,0 promille bo'lgan) kuzatildi.

O'g'il bolalar:
7,8 ming nafar




Qiz bolalar:
7,4 ming nafar



Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart, 1000 aholiga nisbatan, promille)

	Ajrim
Yanvar	57
Fevral	61
Mart	66
Aprel	
May	
Iyun	
Iuyl	
Avgust	
Sentabr	




Demografik holat

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 3,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatah o'sish kuzatilmagan. (2020- yilning yanvar-mart oylarida 4,6 promille bo'lган).



Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2021- yil yanvar-mart, 1000 aholiga nisbatan, promille)

	Vafot etganlar soni	O'lim koeffitsiyenti
Namangan shahar	3,244	5,1
Chust	1,194	4,5
Uychi	1,118	5,2
To'raqo'rg'on	1,036	4,5
Yangiqo'rg'on	1,030	4,7
Pop	1,022	4,6
Chortoq	0,935	4,7
Uchqo'rg'on	0,929	5,4
Kosonsoy	0,913	4,3
Namangan	0,802	4,4
Norin	0,786	4,8
Mingbuloq	0,531	4,2




Demografik holat

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 219 ta o'lim, 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 12,3 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar (shahar) kesimida 1 yoshgacha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

2021- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,0 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,4 %i - o'simtalardan, 4,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,0 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,2 %i - yuqumli va parazitar kasalliklaridan hamda 13,2 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 219 nafarni tashkil etib, ularning 40,6 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,5 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 20,5 %i - tug'ma anomaliyalardan, 0,9 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 11,0 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,5 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021- yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Demografik holat

Nikoh. 2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,9 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 304 taga, To'raqo'rg'on tumanida 115 taga va Pop tumanida 106 taga ko'paygan. Qolgan tumanlarda kamaygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 718 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 184 taga va Chust tumani da 73 taga ko'paygan. Qolgan tumanlarda kamaygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Migratsiya. 2021- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 0,4 ming kishi bo'lgan.


Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1,3	1,2
Ko'chib ketganlar	1,7	2
Migratsiya saldosi	-0,4	-0,8




Demografik holat

Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni




Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1– aprel holatiga 648,1 ming kishini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 19,1 ming kishiga yoki **1,0 %** ga o'sgan.

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)

2020 -yil	2021- yil
3,9	4,1
	
O'lim	
0,8	0,8
	
Tabiiy o'sish	
3,1	3,3
	

2021- yilning yanvar-mart oylarida 4,1 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 25,8 promilleni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan 1,0 ga (2020- yilning mos davrida 24,8 promille bo'lgan) o'sdi.


2021- yilning yanvar-mart oylarida 0,8 ming ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 0,0 promillega teng (2020- yilning mos davrida 5,1 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-mart oylarida 675 ta nikoh va 184 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,0 promillega o'sdi. (2020- yilning mos davrida 1,2 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,6 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega (2020- yilning mos davrida 0,6 promille bo'lgan) o'sdi.

Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(69) 227-84-91